

“CAMCE Engineering Co., Ltd.” kompaniyasi “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga tibbiy niqoblar taqdim etdi

// 23.06.2020

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/camce-engineering>



"CAMCE Engineering Co., Ltd." kompaniyasi mamlakatimizda amalda bo'lgan pandemiya sharoitida koronavirus infeksiyasining tarqalishining oldini olishga ko'maklashish maqsadida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatiga tibbiy niqoblar taqdim etdi.

"CAMCE Engineering Co., Ltd." kompaniyasi pandemiya davrida "O'zkimyosanoat" AJ tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning salomatligini mustahkamlash borasida ko'rsatgan amaliy ko'magi kompaniyaning ishonchli hamkor ekanligini namoyish etdi.

O'zaro hamkorlik va birgalikda kurashish orqali koronavirus infeksiyasidan xalos bo'lishimizga ishonamiz.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati